

**Xolida ZIYAYEVA,**

*O'zbekiston Milliy universiteti dotsent vazifasini bajaruvchisi, PhD*

+99890 124 72 78

*E-mail: tas\_tas1988@mail.ru*

*Sotsiologiya fanlari bo'yicha (PhD), D.Ahmedova taqrizi asosida*

## THE PROBLEM OF VIOLENCE AGAINST WOMEN AND CHILDREN: A SOCIOLOGICAL ANALYSIS

### Annotation

The guarantee and protection of human rights and freedoms in Uzbekistan is a priority junction of state policy, and during the years of independence, a national system for the protection of human rights was created in our country. In our constitutions and codes, in our laws, the human Earth and dignity were strengthened as the highest value. In the national legislation of all countries of the world, special importance is attached to ensuring human rights and freedoms, in particular, protecting the life, health, honor and dignity of a person from various criminal encroachments. But despite the effective measures, cases of violence against women and children in our country are more common compared to other cases of violence. This article analyzes the concept of violence, types of violence against women and children, psychological violence against women and its consequences.

**Keywords:** violence, harassment, types of violence, women, physical violence, mental abuse, economic violence, sexual violence, human rights

## ПРОБЛЕМА НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН И ДЕТЕЙ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

### Аннотация

Гарантия и защита прав и свобод человека в Узбекистане является приоритетным направлением государственной политики. В годы независимости в нашей стране была создана национальная система защиты прав человека. В наших конституциях и кодексах, законах закреплена человеческая воля, достоинство как высшая ценность. В национальном законодательстве всех государств мира особое значение придается обеспечению прав и свобод человека, в частности защите жизни, здоровья, чести и достоинства личности от различных преступных посягательств. Но, несмотря на эффективные меры, случаи насилия в отношении женщин и детей в нашей стране продолжают расти по сравнению с другими случаями насилия. В этой статье анализируется понятие насилия, виды насилия в отношении женщин и детей, психологическое насилие в отношении женщин и его последствия.

**Ключевые слова:** насилие, домогательства, типы насилия, женщины, физическое насилие, психологическое насилие, экономическое насилие, сексуальное насилие, права человека

## XOTIN-QIZLARGA VA BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK MUAMMOSI: SOTSIOLOGIK TAHLIL

### Annotatsiya

O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash va himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yunalishi bo'lib, mustaqillik yillarida mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy tizim yaratildi. Konstitutsiyamiz va kodekslarimizda, qonunlarimizda inson erki, qadr-qimmatini eng oliy qadriyat sifatida mustahkamlandi. Dunyodagi barcha davlatlarning milliy qonunchiligida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, xususan shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini turli jinoiy tajovuzlardan himoya qilishga alohida ahamiyat berilgan. Lekin samarador chora-tadbirlarga qaramay mamlakatimizda xotin-qizlar va bolalarga nisbatan zo'rvonlik holatlari boshqa zo'rvonlik holatlariga nisbatan ko'proq uchramoqda. Ushbu maqolada zo'rvonlik tushunchasi, xotin-qizlarga va bolalarga nisbatan zo'rvonlik turlari, xotin-qizlarga nisbatan psixologik zo'rvonlik va uning oqibatlarini tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** zo'rvonlik, tazyiq, zo'rvonlik turlari, xotin-qizlar, jismoniy zo'rvonlik, ruhiy zo'rvonlik, iqtisodiy zo'rvonlik, jinsiy zo'rvonlik, inson huquqlari

**Kirish.** Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida "insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadriyat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligi" e'tirof etilgan[1].

Zo'rvonlikdan erkaklar ham jabrlanishi mumkin, lekin xotin-qizlar va bolalarning zo'rvonlikdan jabrlanish ehtimoli yuqoriligi, zo'rvonlik turlari, og'irlik darajasi va kelib chiqadigan oqibatlar keskin farqlanishini inobatga olgan holda, so'nggi islohotlar aynan ularni himoya qilishga qaratilgan. Mazkur muammo (latentligi)ning yuqoriligi shundaki, jabrlanuvchilar o'zlariga yetkazilgan zararni normal hayot deb tushunishi, oilasining siri ovoza bo'lib ketmasligi yoki oila buzilib ketmasligi, ota-onasi yoxud turmush o'rtog'ining obro'sini to'kmaslik uchun hech qaerga murojaat qilmaydilar. Zo'rvonlikning ko'rinishlari turlicha bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida" Qonunida zo'rvonlikning to'rt asosiy turi belgilangan[2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Dastlab zo'rvonlik atamasini norvegiyalik sotsiolog J.Galtung bergan. Bu holda zo'rvonlik talab qilinadigan jismoniy yoki aqliy harakatlarni amalga oshirish qobiliyatini cheklashga olib keladigan har qanday ta'sirni anglatadi.

Oiladagi zo'rvonlikning namoyon bo'lishi va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha L.Berkovits va B.Kreyxi tomonidan tadqiqotlar o'tkazilgan. Birinchisi butun dunyoda agressiya psixologiyasi sohasidagi yetakchi mutaxassis sifatida tanilgan. L.Berkovits an'anaviy ravishda bolalar va ayollarga nisbatan oiladagi zo'rvonlikka e'tibor beradi va keksa odamlar va boshqa qarindoshlar toifasini o'z tahliliga kiritmaydi, B.Kreyxi esa oiladagi qariyalarga nisbatan zo'rvonlik va beparvolikni yetarlicha batafsil ko'rib chiqadi.

Sotsiologiyada zo'rvonlik, odatda, hokimiyat kontekstida ko'rib chiqilgan (M.Veber, Ye.Toffler va boshq.) nazorat va majburlashga asoslangan hodisa sifatida esa K. Sen-Simon, E.Dyurkgeym, T.Parsons va boshqalar tomonidan tahlil qilingan. Zo'rvonlikni kuch munosabatlarining bir turi sifatida talqin qilish mumkin, chunki ikkinchisi bir irodaning

boshqasi ustidan hukmronligini anglatadi, Shunga o'xshash boshqa ta'riflar M.Veber tomonidan berilgan. E.Dyurkgeym ("anomiy nazariyasi") va R.Merton kabi klassik sotsiologik mualliflar zo'rvonlik xulq-atvorning aniq normalari va o'zaro kutish tizimi mavjud bo'lmaganda ijtimoiy yorliqlar natijasida paydo bo'ladi deb hisoblashgan.

T.Gobs va uning izdoshlari yondashuvlarida "ijobiy" va "salbiy" ma'nodagi zo'rvonliklar haqida so'z boradi. U ijtimoiy zo'rvonlik tabiatini tizimli bo'lib, u jamiyatning barcha sohalarini, shu jumladan "madaniy zo'rvonlik"ni qamrab oladi degan fikrlarni o'z asarlarida keltirgan.

Zo'rvonlikning ijtimoiy-psixologik jihatlari Z.Freyd, G.Yung, K. Xorni va boshq. asarlarida ochib berilgan. Psixologiyada zo'rvonlikni insonning ijtimoiy-biologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan tajovuzkor xatti-harakatlar deb hisoblaydi.

Sotsiologiya nuqtai nazaridan zo'rvonlik-bu ma'lum bir ijtimoiy guruh, shaxs tomonidan boshqa ijtimoiy guruhlarga, shaxslarga nisbatan iqtisodiy yoki siyosiy ustunlikni qo'lga kiritish yoki saqlab qolish, ma'lum imtiyozlarga ega bo'lish uchun turli xil majburlash shakllaridan foydalanishdir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Zo'rvonlikka uchragan xotin-qizlar va bolalar muammolarini o'rganishning sotsiologik asoslarni ochib beruvchi, ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy hodisalarni ilmiy bilishning umumiy metodi bo'lgan dialektik metod ushbu tadqiqotning metodologik asosini tashkil qiladi. Shuningdek, mavzuga tizimli yondashuv, qiyosiy taqqoslash, tizimli tahlil kabi xususiy-ilmiiy metodlardan foydalaniladi. Bundan tashqari, tadqiqot predmetni zo'rvonlikka uchragan xotin-qizlar va bolalarni ijtimoiy himoyalashga doir konseptual, kognitiv, hamda gumanistik ta'limotlarining sotsiologik tahlili tashkil qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

BMT Bosh Assambleyasi 1993 yilda qabul qilgan Xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonlikka barham berish to'g'risida deklaratsiyasida ko'rib chiqilayotgan atamaga quyidagicha ta'riflar beriladi:

Ushbu Deklaratsiyaning 1-moddasiga muvofiq, «Xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonlik» atamasi ayollarga nisbatan jismoniy, jinsiy yoki psixologik ziyon yetkazishi, unga azob berishi mumkin bo'lgan gender xususiyatiga ko'ra sodir qilingan har qanday zo'rvonlik tushuniladi. Bunga: shunday harakatlarni sodir qilish tahdidi, shilqimlik yoki ixtiyoriy ravishda ijtimoiy yoki shaxsiy hayotda uni erkidan mahrum qilish kiradi.

«Xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonlik» ushbu Deklaratsiyaning 2-moddasida quyidagilarni qamrab oladi. Unga ko'ra:

a) oilada kaltaklash, ayol jinsiga mansub bolalarni yo'ldan urish, sarpo bilan bog'liq zo'rvonlik, er-xotinga nisbatan jinsiy zo'rvonlik, ayollar jinsiy organlariga shikast yetkazish va ayollarga zarar yetkazuvchi boshqa an'anaviy harakatlar, shuningdek, ekspluatatsiya bilan bog'liq er-xotinlikka oid bo'lmagan jismoniy zo'rlash yoki ruhiy zo'rvonlik[3];

b) jamiyatning doimiy yacheykalarida sodir bo'ladigan jismoniy, jinsiy yoki psixologik zo'rvonlik: ish joyida, ta'lim muassasalari yoki boshqa joylarda zo'rlash, yo'ldan urish, jinsiy ta'qib, xotin-qizlar savdosi va fohishalikka majbur qilish; v) qaerda sodir etilishidan qat'i nazar, davlat tomonidan rag'batlantiriladigan yoki qoralanadigan jismoniy, jinsiy yoki psixologik zo'rvonlik».

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining hisobotida "Zo'rvonlik- shaxsga nisbatan og'riq, zarar (shikast) yetkazish hisoblanadi deb ta'rif berilgan[4]. Zo'rvonlik falsafa, siyosat, huquq, tarix, psixologiya, sotsiologiya fanlari nuqtai nazaridan o'rganiladi. Uning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

jismoniy zo'rvonlik – kundalik turmushda oilaning bir yoki bir necha a'zolari tomonidan boshqa bir a'zosi hayoti, sog'lig'i, erkinligi, or-nomusi, sha'ni, qadr-qimmatini va qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va qonuniy manfaatlariga qarshi muntazam jismoniy kuch ishlatish yoki uni qo'llash bilan qo'rqitishda ifodalanadigan turli darajada tan jarohatlari yetkazish, qiynoqqa solish, zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish va boshqa.

2) Ruhiy zo'rvonlik – kundalik turmushda oilaning bir yoki bir necha a'zolari tomonidan boshqa bir a'zosining yohud boshqa shaxsning or-nomusi, qadr-qimmatini tahqirlash, kamsitish, haqoratlash, obro'sini tushirish, doimiy tanqid qilish, uning tuyg'ulariga bepisand yoki beparvo munosabatda bo'lish, ishonchini suiiste'mol qilish, qo'rqitish, qarindoshlar o'rtasida obro'sini to'kish, uydan haydash yoki uydan chiqarib yuborish bilan qo'rqitish kabi yo'llar orqali uning hayoti va sog'lig'iga xavfli bo'lgan ruhiy ta'sir ko'rsatish.

Jinsiy zo'rvonlik– kundalik turmushda oilaning bir yoki bir necha a'zolari tomonidan boshqa bir a'zosining yoxud boshqa shaxsning or-nomusi, qadr-qimmatini va jinsiy erkinligiga qarshi uni jinsiy aloqa qilishga majburlash maqsadida jinsiy daxlsizligi va erkinligiga tahdid qilish yoki uni qo'llash, shu jumladan, jinsiy aloqaning g'ayritabiiy shakllarini talab qilish, fohishalik bilan shug'ullanishga majburlash va hokazo.

Iqtisodiy zo'rvonlik – kundalik turmushda oilaning bir yoki bir necha a'zolari tomonidan boshqa bir a'zosining yoxud boshqa shaxsni turli xil bahonalar bilan pul va buyumlardan foydalanishga qonuniy haqi bo'lsa-da, undan mahrum qilish orqali moddiy yordam (pul, oziq-ovqat, kiyim-kechak va h.k.) so'rashga majburlash, iqtisodiy mustaqilligiga to'sqinlik qilish (mehnat qilish huquqini cheklash).

Zo'rvonlik – qonun bilan taqiqlangan ma'naviy, ruhiy va jismoniy zarar yetkazuvchi harakatlarni shaxs xohish irodasiga qarshi ravishda amalga oshirishdir[5]. «Zo'rvonlik» zo'rvonlarga xos xatti-harakat, zo'rlik, kuch ishlatish, o'zgalarga qonunsiz ravishda kuch ishlatuvchi, zo'rlik qiluvchi, jismoniy baquvvatlik, kuchlilik, ulkanlik, shiddatlilik deb e'tirof etiladi[6].

Aytilish joizki, ushbu zo'rvonliklar deyarli aynan oilada sodir etilib, insonning ixtiyori va erkiga zid ravishda jismoniy kuch ishlatish yoxud ruhiy ta'sir etish orqali amalga oshiriladi. Umumiy ko'rinishda oiladagi zo'rvonlikni quyidagilarga ajratish mumkin: ayollarga nisbatan zo'rvonlik; bolalarga nisbatan zo'rvonlik; qarindoshlarga nisbatan zo'rvonlik.

Yurtimizda bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2019 yil 2 sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi, 2019 yil 2 sentyabrdagi «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi qonunlarning imzolanishi bu muammolarning naqadar jiddiy ekanligini isbotladi[11]. Unda oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini

takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri etib, jamiyatda oilaviy-maishiy tUSDagi zo'rlik ishlatishning har qanday ko'rinishiga nisbatan jazo muqarrarligini ta'minlash belgilandi.

Shuningdek, mamlakatimizda xotin-qizlar huquqlarini yanada mustahkamlash va ularga teng imkoniyatlar yaratish, ularning ijtimoiy faolliklarini oshirish maqsadida xalqaro hamjamiyatlar bilan ham bir qator xalqaro hujjatlar imzolandi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik darajasini kamaytirish uchun xalq bilan muloqotlar o'tkazilmoqda, 200 ta tuman va shaharda reabilitatsiya shelter-markazlari muvaffaqiyatli ishlarida, zo'ravonlik qurbonlariga himoya orderlari berilmoqda, ishonch telefonlari ishlarida[12].

Bunday o'zaro aloqalar natijasida «2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi» loyihasi va uning tegishli ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Ushbu hujjatning asosiy bandlaridan biri ayollarga nisbatan zo'ravonlik va tazyiqning barcha turlarini yo'q qilishdir[13]. Strategiyaning asosiy maqsadlaridan biri ayollarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olish, aniqlash va bartaraf etishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini shakllantirishdir.

O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 11 apreldagi Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi» 829-sonli Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun bilan O'zbekiston Respublikasi qonunlariga xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy sohada o'z huquqlari va manfaatlarini amalga oshirishida qo'llab-quvvatlash masalalarini tartibga soluvchi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni nazarda tutuvchi, shuningdek bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlab qo'yuvchi o'zgartishlar kiritilmoqda. Ushbu Qonun xotin-qizlar va bolalarga nisbatan shilqimlik hamda zo'ravonlikning oldini olishga, oilalardagi ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilashga, bolalar va xotin-qizlar huquqlari bilan bog'liq xalqaro indekslarda mamlakatimizning o'rini yaxshilashga xizmat qiladi, shuningdek Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya, bolalar masalalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlar (shaharlar) komissiyalari faoliyatining mustahkam huquqiy asosini yaratadi[14].

**Xulosa va takliflar.** O'zbekistonda mustaqillik yillarida xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotimizda ularning to'laqonli ishtirokini ta'minlashga doir chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Xususan, oilada erning xotini va bolalari ustidan hukmronligi hozirgacha qaror topib kelmoqda. Lekin, bugungi kunga kelib, oilada ayollarga va bolalarga nisbatan zulmkorlik, tajovuzkorlik, bir so'z bilan aytganda zo'ravonlik bilan munosabatda bo'lish natijasida og'ir jinoyatlarning sodir etilayotganligi achinarli holdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси (1948 йил 10 декабрь)/ Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси// <http://constitution.uz/uz>
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan. <https://lex.uz/uz/docs/>
3. Доклад Всемирной конференции для обзора и оценки достижений Десятилетия женщины Организации Объединенных Наций: равенство, развитие и мир, Найроби, 15-26 июля 1995 года (издание Организации Объединенных Наций, в продаже под № R.95.IV.10), глава I, раздел А.
4. <http://www.euro.who.int/en/countries/uzbekistan>
5. Арифходжаева И.Х. Ички ишлар идоралари психологияси: Ўқув қўлланма. – Тошкент., 2008. – Б. 405.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент., 2009. – Б. 167–168.
7. Болаларга нисбатан зўравонлик бўйича бутунжаҳон ҳисоботи. – Тошкент., 2009. – Б. 61.
8. Гуломова С. “Ҳидоя” ва Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясидаги уйғунлик масалалари // Демократиялаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – 2008. – №4. – Б. 32.
9. Ўзбекистон республикаси олий суди пленуми қарорлари тўплами. 1-жилд. – т., 2006. – Б. 168.
10. Х.Зияева. Маиший зўравонликка учраган хотин-қизларни ижтимоий ҳимоялаш самардорлигини ишириш механизмларини. Социология фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. Тошкени -2021.- Б.35.
11. Танзила Нарбаева. Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилишнинг инновацион модели. Социодискурсив таҳлил. Монография, Тошкент: Тасвир,2020. – Б.115
12. [https://t.me/zoravonlikka\\_yol\\_yoq\\_netnasiliyu](https://t.me/zoravonlikka_yol_yoq_netnasiliyu)
13. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 26 февралдаги хотин-қизларнинг муаммоларини ҳал қилиш ва уларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш масалалари муҳокамаси юзасидан селектордаги нутқи. «Халқ сўзи» газетаси, 2021 йил 27 февраль.
14. Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 11 апрелдаги Хотин-қизлар ва болалар ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилиш тизими янада тақомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисидаги» 829-сонли Қонуни. <https://lex.uz/docs/6430272>